

UO‘K: 894.375

SVETLANA ALEKSIYEVICH VA O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA URUSHNING G‘AYRIINSONIY OQIBATLARI TASVIRI

Maxmudova Diyora,

Navoiy davlat universiteti, Tillar fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi,

II bosqich magistranti

ORCID: 0009-0001-3377-6126

e-mail: diyorad023@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada S.Aleksiyevichning “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi” va O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asrlari komparativ-tahliliy yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda ochlik, zo‘ravonlik, ona-bola fojiasi hamda insoniy qadriyatlarining yemirilishi kabi motivlar qiyosan tahlil qilinadi. Har ikki adib urushni faqat tarixiy hodisa emas, balki inson va jamiyat hayotini izdan chiqaruvchi fojea sifatida talqin etgani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: urush fojiasi, komparativ tahlil, g‘ayriinsoniylik fenomeni, ochlik motivi, ma‘naviy yemirilish, badiiy talqin, inson va jamiyat.

Abstract. This article examines S. Alexievich “У войны не женское лицо” and O‘. Hoshimov’s “Ikki eshik orasi” using a comparative-analytical approach. The study analyzes motifs such as hunger, violence, the tragedy of motherhood and children, and the erosion of human values. It is argued that both writers interpret war not only as a historical event, but also as a tragedy that disrupts the life of a person and society.

Key words: war tragedy, comparative analysis, phenomenon of inhumanity, hunger motif, spiritual decay, artistic interpretation, man and society

Аннотация. В данной статье с помощью сравнительно-аналитического подхода исследуются произведения С. Алексиевича “У войны не женское лицо” и У.Хошимова “Ikki eshik orasi”. Анализируются такие мотивы, как голод, насилие, трагедия материнства и детей, а также эрозия человеческих ценностей. Утверждается, что оба писателя интерпретируют войну не только как историческое событие, но и как трагедию, разрушающую жизнь человека и общества.

Ключевые слова: Военная трагедия, сравнительный анализ, феномен бесчеловечности, мотив голода, духовный упадок, художественная интерпретация, человек и общество.

Kirish. XX asrda insoniyat tarixida yuz bergan jahon urushlari nafaqat geosiyosiy xaritani, balki insonlar ongini, ularning ma‘naviy qadriyatlar tizimini va ijtimoiy munosabatlar modelini tubdan o‘zgartirgan hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. Urush fenomeni adabiyotda uzoq vaqt qahramonlik, jasorat va vatanparvarlik diskursi doirasida talqin etilgan bo‘lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib uning insoniy fojialari, ruhiy travmalari va ma‘naviy yemirilish jarayonlari markaziy mavzuga aylandi. Ayniqsa, urushni oddiy inson taqdiri, ayol va ona nigohi orqali tasvirlash tendensiyasi adabiy tafakkurning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ham urushni an‘naviy “qahramonlik” diskursi doirasida emas, balki uning inson shaxsiyatida yuzaga keltirgan jismoniy va ma‘naviy yemirilish jarayonlari nuqtayi nazaridan talqin etuvchi asarlarni qiyosiy tahlil qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metod. 1939-1945-yillarda yuz bergan Ikkinchi jahon urushi, uning insonlar hayotiga olib kelgan iztiroblari, yo‘qotishlari va ruhiy sinishlarini tasvirllovchi ikki asar: belarus yozuvchisi, xalqaro Nobel mukofoti sovrindori Svetlana Aleksiyevichning *“Urushning ayoldan yiroq qiyofasi”* (1983) hujjatli-polifonik asari hamda o‘zbek adabiyotining zabardast ijodkori, Hamza nomidagi O‘zbekiston SSR Davlat mukofotiga va “Mehnat shuhrati” ordeniga sazovor bo‘lgan O‘tkir Hoshimovning *“Ikki eshik orasi”* (1985) romanini komparativ-tahliliy yondashuv asosida o‘rganish tadqiqotimizning asosiy metodologik tamoyilini tashkil etadi. Ushbu yondashuv orqali asarlarda urush fenomenining talqini, inson qadr-qimmatining sinovdan o‘tishi hamda tarixiy voqelikning badiiy ifodasi o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash ko‘zda tutiladi. Mazkur ikki asar janr va poetik qurilishi jihatidan farqli bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy nuqta – urushning inson hayotiga keltirgan og‘ir oqibatlarini markazga qo‘yishdir.

Muhokama. *“Urushning ayoldan yiroq qiyofasi”* asari kompozitsion jihatdan kollaj usulida qurilgan bo‘lib, unda turli ayollarning individual xotiralari va og‘zaki guvohliklari bir butun badiiy matn tarkibiga jamlangan. Muallif voqealarni an’anaviy syujet izchilligida emas, balki parcha-parcha xotiralar uyg‘unligi orqali taqdim etadi. Bu xotiralar rasmiy tarix diskursidan farqli ravishda urushning “tantanavor” emas, balki iztirobli, parchalanishlarga boy ichki manzarasini ochib beradi. Asar nomi belarus yozuvchisi Ales Adamovichning *“Tom ostidagi urush”* asarining birinchi qatoridan olingan. Yozuvchi o‘z asari haqida shunday yozadi: *“Urush emas, urushdagi odam haqida yozyapman. Urush tarixini emas, hislar tarixini bitmoqdaman. Men – qalb tarixchisiman.[1] Bu kitobni o‘qiydiganlarga rahmim keladi... O‘qimaydiganlarga ham...”*. [2] Bu e’tirof asarning poetik va metodologik asosini belgilaydi. Ya’ni yozuvchi urushni harbiy-siyosiy hodisa sifatida emas, balki inson ruhiyatida yuz bergan hissiy jarayon sifatida talqin etishini ochiq bildiradi. O‘zini “qalb tarixchisi” deb atar ekan, u rasmiy tarixdan farqli ravishda hissiy tajribani markazga qo‘yadi. Shuningdek, asarning og‘ir ruhiy yukini anglatgan holda urush haqidagi haqiqatni bilish ham, undan bexabar qolish ham inson uchun fojea ekanini ko‘rsatadi. Ya’ni, muallif tasvirlayotgan voqelik oddiy tarixiy ma’lumot emas, balki insoniyatning og‘riqli va unutilmas xotiralaridir.

Urushning eng og‘ir oqibatlaridan biri – ochlikdir. Tahlilga tortilgan har ikki asarda ham ochlik nafaqat biologik ehtiyojlarning qondirilmasligi, balki inson qadr-qimmatining sinovga qo‘yilishi, ma’naviy tanazzul va ruhiy iztirob ramzi sifatida talqin etiladi. Xususan, S.Aleksiyevich asarida ochlik ayollar xotiralari orqali individual tajriba sifatida tasvirlanadi. Ikkinchi jahon urushi davrida Ukraina SSSR tarkibidagi davlatlardan biri bo‘lgan va u yerda kuzatilgan dahshatli ochlik haqidagi tasvirlarni muallif o‘ta mohirlik bilan berib o‘tadi: *“Oksana bilan dugona bo‘lganmiz, u ukrainalik edi. Qishlog‘ida odamlarning yarmi qirilib ketibdi. Ukalari va ota-onasi ham o‘libdi. Qurbaqa yoki*

sichqonni ham topib bo'lmas ekan – hammasini yeb bitirishibdi. U esa kechasi kolxoz otxonasidan ot go'ngini o'g'irlab yer ekan. Shu bilan o'limdan qutilib qolibdi. Hech kim yeya olmas ekan. U esa yebdi: "Issiqligida og'izga kirmaydi, sovuq bo'lsa amallab yesa bo'ladi. Muzlagan bo'lsa undanam yaxshi, undan somonning hidi keladi." [3] Mazkur epizodda ochlik hodisasi oddiy maishiy yetishmovchilik darajasida emas, balki inson mavjudligining tubdan izdan chiqishi sifatida tasvirlanadi. Muallif dahshatli ochlik manzaralarini individual xotira orqali berar ekan, tarixiy fojeani shaxsiy taqdir misolida umumlashtiradi. Qurbaqa, sichqon va kalamushlarni iste'mol qilish haqidagi tasvirlar hayotiy muvozanatning buzilganini anglatadi. Oksana haqidagi parcha esa ochlikning eng og'ir bosqichga yetib kelganligini ko'rsatadi, ya'ni inson tirik qolish instinkti sababli tabiiy va ijtimoiy me'yorlardan chekinishga majbur bo'ladi. Ot go'ngini iste'mol qilish tasviri nafaqat jismoniy azob, balki insoniylik chegaralarining buzilishi sifatida talqin etiladi.

Xuddi shunday ochlik motivi O'. Hoshimov romanida ham yetakchi o'rin tutadi. Biroq unda biologik ehtiyojning keskinligi bilan birga inson qadr-qimmatining og'ir sinovlar ostida qolganini ham ko'rish mumkin. Asarda ochlikning keskin va dramatik ko'rinishlaridan biri non do'koni oldidagi epizod orqali tasvirlanadi. Yarimta buxanka nonni o'g'irlab qochgan bolaga nisbatan xotin va atrofdagilar tomonidan shafqatsiz munosabat bildiriladi. Voqea oddiy maishiy janjal emas, balki urush sharoitida tirik qolish uchun kurash insoniy munosabatlarni qanday darajada izdan chiqarganini ko'rsatuvchi sahnadir: *"Bolaning yelkasidan tortib, quloq-chakkasiga tarsaki tushirgan edi, bola bukchayib qoldi. Xotin jonholatda nonga chang soldi. Bola nonni qo'yib yubormadi. Chala-chulpa chaynab ochko'zlik bilan yuta boshladi... Bolapaqirni birpasda olomon qilib yuborishdi. Shuncha odam savalab yotibdi-yu bola parvo qilmaydi. Qorga muk tushganicha non kavshaydi... Bola kuragiga tushayotgan tepki zarbidan munkib-munkib ketyapti, ammo nonni ikki qo'llab changallagan ko'yi yutoqib og'ziga tiqadi. Non burnidan oqqan qondan qizarib ketgan... Bola oxirgi luqma nonni yeb bo'lib boshini ko'tardi. Yuzidan qon aralash ko'z yoshi oqib tushar, nariroqda yirtiq telpagi qorga ko'milib yotar edi."* [4] Keltirilgan lavhada muallif urush sharoitida ochlikning insoniy munosabatlarni qanday darajada izdan chiqarganini nihoyatda keskin tasvir orqali ochib beradi. Bola kaltak ostida qolgan holda ham nonni qo'yib yubormaydi, bu holat tirik qolish instinkting mutlaq ustuvorligini hamda ochlikning biologik bosimi ijtimoiy me'yor va axloqiy chegaralardan ustun kelganini bildiradi. Shu bilan birga, bolaga tashlangan xotin ham ochlik qurboni: uning bolaga nisbatan shafqatsizligi ortida yetim qolgan bolalari va eridan kelgan qoraxat fojeasi turibdi. Demak, bu sahna orqali yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilik emas, balki urush sharoitida insoniylikning sinovga qo'yilgan murakkab vaziyati anglashilmoqda. Qor ostida qolgan "yirtiq telpak",

“qonga belangan non” va “ko‘z yoshi aralash yuz” kabi detallarning kuchli vizualligi ochlikni abstrakt tushuncha emas, balki konkret va og‘riqli haqiqat sifatida gavdalantiradi.

Yuqoridagi har ikki asarda ochlik insonni tabiiy hayot mezonlaridan chetga chiqaruvchi, uni tirik qolish instinkti doirasiga siqib qo‘yuvchi kuch sifatida talqin etiladi. Biroq talqin usuli turlicha: birinchi asarda bu motiv xotiralar va guvohliklar orqali umumlashtirilgan tarixiy fojea sifatida berilsa, “Ikki eshik orasi” romanida u keskin dramatik sahna vositasida, konkret vaziyat ichida ochiladi. Natijada har ikkisida ham ochlik urushning oddiy iqtisodiy oqibati emas, balki insoniy munosabatlarni sinovdan o‘tkazuvchi va jamiyatning ma’naviy holatini ochib beruvchi kuchli badiiy ramz darajasiga ko‘tariladi.

“Ikki eshik orasi” O‘tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o‘rin egallaydi. Undagi voqealar urushdan oldin boshlanib, urush yillarida, undan keyingi davrda ham davom etadi va 1966-yildagi Toshkent zilzilasi voqeasi bilan tugaydi. Asarda kichik bir qishloq hayoti va undagi insonlar taqdiri misolida urushning keng miqyosdagi fojeaviy oqibatlari ochib beriladi. Muallif diqqat markaziga faqat urushdagi jangovar qahramonliklarni emas, balki qurolli to‘qnashuvlarning salbiy oqibatlari front hududidan minglab kilometr uzoqda yashovchi insonlar hayotida ham chuqur va davomli iz qoldirganini personajlar taqdiri orqali badiiy asosda ko‘rsatib beradi. Romanda ko‘plab o‘zbek yigitlarining urushda ishtirok etgani, ayrimlarining qahramon sifatida e’tirof etilgani, boshqalarning nogiron bo‘lib qaytgani yoki umuman qaytmagani tasvirlanadi. Ushbu yo‘qotishlar va ruhiy zarbalar ota-onalar qalbida chuqur jarohat qoldiradi, ayrim oilalarning butunlay yemirilishiga ham sabab bo‘ladi. Asarni Orif oqsoqol tilidan aytilgan quyidagi jumlar harakatga keltirib turadi deyish mumkin: *“Xudo odamzodga umrni o‘lchab beradi. Odamning umri necha yil yashagani bilan sanalmaydi... Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganda qo‘lidan kelgancha savobli ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g‘isht qo‘yib ketadi. Yana bir xillari bor: o‘sha imoratdan aqalli bitta g‘ishtni o‘g‘irlab ketgisi keladi. O‘g‘irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshikka borganda bari bir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi”*. [5] Oqsoqolning bunday ma’noli gaplari asarda ilgari surilgan asosiy g‘oyani, ya’ni insonning tarixiy sinovlar oldidagi ma’naviy mas’uliyatini ifodalash uchun keltiriladi. “Hayot imorati” haqidagi ramziy tasvir orqali yozuvchi jamiyat taqdiriga hissa qo‘shuvchi va aksincha, uni yemiruvchi insonlar o‘rtasidagi farqni ochib berishga harakat qiladi.

Urushning insonlar hayotiga solgan iztiroblari faqat ochlik va ma’naviy tanazzul bosqichlari bilangina cheklanmaydi, bunga qo‘shimcha ravishda, insoniyat uchun eng dahshatli qirralari uning bevosita zo‘ravonlik manzaralarida ham namoyon bo‘ladi. Chunki har qanday urush sharoiti zo‘ravonlik va qirg‘in uchun zamin yaratadi. Tahlil obekti bo‘lgan har ikki asarda jang maydonida yoki bosib olingan hududlarda sodir etilgan vahshiyliklar insoniy qadriyatlarni yemiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Xususan, “Ikki

eshik orasi” romanida nemis bosqinchilarining g‘ayriinsoniy harakatlari asarning eng kulminatsion nuqtasi sifatida tasvirlanadi. Asar bosh qahramonlaridan biri bo‘lgan Kimsan nemislar qo‘liga asir tushgach, Reyxning sovuq urgan askarlarini qutqarish uchun o‘tkazilgan tajribalarning guvohiga aylanadi: Odamlar tiriklayin muz ichiga tushiriladi va ularning chidamliligi “ilmiy tajriba” sifatida kuzatiladi. Oldiniga bir cholni, keyin esa yoshgina bir ayolni yechintirib qizchasining ko‘z o‘ngida muz ostiga tashlashadi. Muallif ushbu dahshatni quyidagicha baholaydi: *“Hisob-kitobga usta nemislar, ”madaniyatli”, “bilimdon” fashistlar bir narsani o‘ylamasdi. Ayolni shuncha azobga bardosh berishiga majbur qilgan kuch dori emas! Onaning ko‘z o‘ngida qizchasi turibdi. U bolasidan umid uzolmayapti. O‘lolmayapti. “Dono” fashistlarning aqli qandoq yetsin bunga!”*. [6] Bu epizod orqali urush sharoitida “ilmiy tajriba” nomi ostida amalga oshirilgan vahshiylikning asl mohiyati ochib beriladi. Inson hayotining oddiy tajriba obyektiga aylantirilishi urush davrida axloqiy me‘yorlarning butunlay izdan chiqqanini ko‘rsatadi. Muallif kinoyaviy ohangda qo‘llangan “madaniyatli”, “bilimdon” so‘zlari orqali tashqi taraqqiyot va ichki shafqatsizlik o‘rtasidagi keskin zidlikni ifodalaydi. Shuningdek, ayolning sovuqqa chidashi dorining ta’siri bilan emas, balki onalik tuyg‘usi bilan izohlanishi muhim g‘oyaviy urg‘u hisoblanadi. Bu orqali yozuvchi insoniylikning eng so‘nggi tayanchi bo‘lgan mehr va umid eng shafqatsiz sharoitda ham saqlanib qolishini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Natijada bu epizod urushni nafaqat jismoniy qirg‘in, balki axloqiy tanazzul makoni sifatida talqin etishga xizmat qiladi.

Xuddi shunday urushda sodir etilgan g‘ayriinsoniy xunrezliklar tasviri S.Aleksiyevich hujjatli prozasida ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan, quyidagi epizod bunga yaqqol misol bo‘la oladi: *“Bitta barak oldida bir ayol turgandi. U bola emizayotgandi. Bilasizmi... Itlar ham shu yerda, qorovullar ham, hamma qotib qoldi, hech qaysinisi tegmay turibdi. Nemis komendant bu manzarani ko‘rib... yugurib keldi-da, ona qo‘lidan go‘dakni yulib oldi... Bilasizmi, yonida kolonka, suv chiqadigan temir kolonka turgandi. U bolani mana shu temirga urdi. Miyasi oqib tushdi... Sutdek... Qarasam, ona yiqildi: Men shifokorman... Yuragi yorilganligini tushundim...”*[7] Keltirilgan lavhada urushning shafqatsiz mohiyati eng nozik va himoyasiz holatda bo‘lgan onalik va go‘daklik timsollari orqali ochiladi. Emizayotgan ona obrazi hayot davomiyligi va tabiiylikni ifodalasa, komendantning harakati ana shu tabiiy jarayonni zo‘ravonlik bilan to‘xtatishga qaratilgan kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, hayot beruvchi ona va hayotni yakson qiluvchi zo‘ravon kuch o‘rtasida keskin qarama-qarshilik yuzaga keladi. Detallarning aniqligi tasvirni shunchaki voqea bayoni darajasida qoldirmay, uni kitobxon ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgandek real manzaraga aylantiradi. Ayniqsa, “sutdek” qiyosi ramziy ma’no kasb etib, ona suti va to‘kilgan go‘dak miyasi tasviri o‘rtasida dahshatli semantik uyg‘unlik hosil qiladi. Bu o‘xshatish urushning hayotni muvozanatda tutib turgan qadriyatlarni qay darajada shafqatsizlarcha barbod qilganini ham ifodalaydi.

Shifokor nutqi orqali berilgan “yuragi yorilganligini tushundim” jumlasida esa voqeani hissiy hayqiriqdan ko‘ra tibbiy aniqlik bilan yakunlaydi va tasvir ta‘sirini yanada kuchaytiradi. Hissiyotlarini junbushga keltiradigan bunday tasvirlarni berish orqali muallif urush bu shunchaki qurolli to‘qnashuv emas, balki u insoniylikning inqirozi ekanligini namoyon etmoqchi bo‘ladi. Ikki xil davr, ikki xil mintaqada yashagan ikki ijodkor asarini bog‘lagan rishta, barcha xalqlar adabiyotining asriy mavzusi bo‘lgan urush va undagi insonlar taqdiri bo‘lsa, ularni farqlab turuvchi jihat diniy e‘tiqodlar, urf-odatlar va mentalitet hisoblanadi. S. Alekseyevich asari shafqatsiz realizmda yozilgan bo‘lib, urushning bor dahshati “yalang‘och” holda tasvirlangan bo‘lsa, O‘. Hoshimov asari o‘zbek xalqining milliy mentalitetiga moslanganligi bilan, o‘quvchini “ayagan”ligi bilan farqlanib turadi. Bunga qo‘shimcha tarzda, “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi”da aynan frontning o‘zida bo‘lgan voqealarga, undagi qonli to‘qnashuvlarga asosiy e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, “Ikki eshik orasi”da yozuvchi front ortidagi urush odamlari iztiroblarini ko‘proq ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Bu bilan muallif frontdan minglab kilometr uzoqda bo‘lgan insonlar taqdiriga ham urushning qanchalik ta‘sir o‘tkaza olganligini katta mahorat bilan tasvirlaydi.

Xulosa. Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, urush va unda qozonilgan g‘alaba hech bir millat odamlariga baxt olib kelmadi. Aksincha, urush asri odamlarini ham, undan keyin tug‘ilgan bolalarni ham baxtsiz qildi. Tahlilga tortilgan ikki asar qahramonlarining taqdiriga ham urush bevosita yoki bilvosita kirib bordi va ularni o‘zining qurbonlariga aylantirdi. Urushni xalq o‘ylab topmadi, lekin xalq uning jabrdiydasiga aylandi. Yozuvchi O‘.Hoshimov bu haqida shunday yozadi: *“Urush degan palakatni ko‘pincha nodon siyosatchilar o‘ylab topadi. Jangari sarkardalar boshlaydi. Jabrini esa begunohlar tortadi. Jangda halok bo‘lgan begunoh askar. Guldek o‘g‘lidan ayrilgan begunoh ona, begunoh ota. Tul qolgan begunoh kelin. Otasidan judo bo‘lgan begunoh g‘o‘dak...”*. [8] Yuqoridagi ikki asar o‘zida kelayotgan yosh avlodni insoniylikka, tinchlikni qadrlashga, XX asrda bo‘lib o‘tgan ikki jahon urushi va uning oqibatlari haqida to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydi. Ayniqsa, hozirda dunyo tinchligiga raxna solayotgan davlatlar siyosatiga ko‘r-ko‘rona ergashmasdan, gumanizm tarfdori sifatida yondashishga chaqiradi. Eng asosiysi, hozirda yashab turgan hayotimizga shukronalik hisini uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алексеевич С. Урушнинг аёлдан йироқ қиёфаси. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018 - B. 14
2. Алексеевич С. Урушнинг аёлдан йироқ қиёфаси. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018 - B. 26
3. Алексеевич С. Урушнинг аёлдан йироқ қиёфаси. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018 - B. 21
4. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021 – B. 148
5. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021 – B. 554
6. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021 – B. 493
7. Алексеевич С. Урушнинг аёлдан йироқ қиёфаси. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018 - B. 342
8. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Toshkent: “Sharq”, 2015–B. 214